



SAID TASHAKKURIY – A VERSATILE CREATOR

Zilola Abdullayeva

1st-year Master's student

Higher School of Iranian and Afghan Studies

Tashkent State University of Oriental Studies

zilolasena@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

O. Turdiyeva

Associate Professor of the Higher School of Iranian and Afghan Studies at TSUOS

Doctor of Philological Sciences

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Said Tashakkoriy, Iranian literature, critic, novelist, playwright, screenwriter, film director, Book of the Year Award, Shahid G'ani Pur Book of the Year Award.

Received: 25.03.26

Accepted: 26.03.26

Published: 27.03.26

Abstract: This article analyzes the life and multifaceted creative activity of Said Tashakkuriy, a prominent representative of 20th–21st century Iranian literature and performing arts. It examines his work as a novelist, playwright, screenwriter, and director, with particular emphasis on his contribution to the development of the historical novel genre. Furthermore, his works on historical, religious, and social themes, as well as his awards and his role in Iran's cultural life, are examined from a scholarly perspective.

SAID TASHAKKURIY – SERQIRRA IJODKOR

Zilola Abdullayeva

1-kurs magistranti

Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

zilolasena@gmail.com

O. Turdiyeva

TDSHU, "Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi dotsenti

Filologiya fanlari doktori

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Said Tashakkuriy, Eron adabiyoti, tanqidchi, romannavis, dramaturg, ssenariynavis, kinorejissor, pyesa, Shahid Gʻani Pur yil kitobi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX–XXI asr Eron adabiyoti va sahna sanʼatining yorqin namoyandasi Said Tashakkuriyning hayoti hamda koʻp qirrali ijodiy faoliyati tahlil qilinadi. Unda adibning romannavis, dramaturg, ssenariynavis va rejissor sifatidagi faoliyati, ayniqsa tarixiy romanchilik rivojiga qoʻshgan hissasi yoritiladi. Shuningdek, uning tarixiy, diniy va ijtimoiy mavzulardagi asarlari, mukofotlari hamda Eron madaniy hayotidagi oʻrni ilmiy jihatdan ochib beriladi.

САИД ТАШАККУРИЙ – РАЗНОСТОРОННИЙ ТВОРЕЦ

Зилола Абдуллаева

Магистрант 1 курса

Высшая школа иранистики и афганистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

zilolasena@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О. Турдиева

Доцент Высшей школы иранистики и афганистики ТГУВ

Доктор филологических наук

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Саид Ташаккурий, иранская литература, критик, романист, драматург, сценарист, кинорежиссёр, пьеса, премия «Книга года имени Шахида Гани Пура».

Аннотация: В данной статье анализируются жизнь и многогранная творческая деятельность Саида Ташаккурия — яркого представителя иранской литературы и сценического искусства XX–XXI веков. Освещается его деятельность как романиста, драматурга, сценариста и режиссёра, с особым акцентом на вклад в развитие исторического романа. Также с научной точки зрения раскрываются его произведения на исторические, религиозные и социальные темы, его награды и место в культурной жизни Ирана.

Kirish. XX–XXI asr Eron adabiyoti va sahna sanʼati taraqqiyotida muhim oʻrin tutgan ijodkorlardan biri – Said Tashakkuriy (سعید تشکری) hisoblanadi. Said Tashakkuriy Eronlik yozuvchi, tanqidchi, romannavis, dramaturg, pyesalar muallifi, ssenariynavis va kinorejissorlik sohasida faoliyat olib borgan. Ijodkor 1963-yilda Quchon shahrida tugʻilgan. U 1969-yildan boshlab Bolalar va oʻsmirlar intellektual rivojlanish markazining hikoya yozish toʻgaraklarida qatnashgan. 1978-yilda esa tasviriy sanʼat fakultetiga oʻqishga kirib, dramatik adabiyot yoʻnalishi boʻyicha tahsil olib, mazkur sohani imtiyozli tamomlagan. 1999-yilda Eron Milliy teatr tanqidchilari uyushmasiga, 2001-

yilda esa Jahon teatr tanqidchilari uyushmasi (ITCA)ga a'zo bo'lgan. 1984-yildan boshlab u badiiy asarlar yaratish bilan bir qatorda dramatik adabiyot va hikoyanavislik sohasida pedagog sifatida ham faoliyat yuritgan. Uning matbuotdagi faoliyati adabiyot va san'at mavzularida yozilib, ko'plab o'quvchilar e'tiborini qozongan maqolalari bilan bog'liq bo'lgan.

1981-yildan boshlab yozuvchi hamda teatr va kino rejissyori sifatida o'z faoliyatini boshlagan. Adabiyot va san'at sohasida matbuot uchun maqolalar yozish, Eronning nufuzli "Fajr" teatr festivalida hakamlilik va tanqidchilik qilish, milliy va respublika miqyosidagi festivallarda ishtirok etish, roman va dramatik adabiyot yo'nalishida asarlarni nashr ettirish, film suratga olish, televideniye seriyallari yozish hamda Tehron radiosi drama bosh boshqarmasida radiopyesalar yaratish - Tashakkuriyning madaniy va badiiy faoliyati doirasidagi ishlari jumlasidandir. Tashakkuriy ustoz sifatida san'at va adabiyot sohasida juda ko'plab shogirdlarni tarbiyalagan.

2001-yillardan boshlab Tashakkuriy ijodida Eron ulamolari shaxsiyati yetakchi o'rinda bo'lgan. Shu mavzudagi eng mashhur asari "ولادت" bo'lib yozuvchi u haqida shunday deydi: "Imom Rizo va Hazrat Ma'sumaning Eronga kelishi ushbu romanda turli qahramonlar tilidan bayon qilinadi. Aslida biz bu asarda opa-singilning hayoti haqida ko'p qirrali, prizmatik manzarali hikoya bilan yuzlashamiz. Shu bilan birga, yozuvchining ayrim mavzularga nisbatan dramatik idroki ham ushbu ikki ulug' zot hayotini tasvirlash jarayonida romanning muhim mazmuniy yondashuvlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi." Tashakkuriyning asarlari islomiy madaniyat va siyratning katta qismini badiiy jihatdan aks ettiradi. Said Tashakkuriy umri davomida o'ziga xos va alohida adabiy oqimni shakllantirdi. U Eron adabiyotining, ayniqsa tarixiy romanchilik rivojida ulkan mehnat qildi. Yozish, dars berish, ma'ruza qilish, intervyular berish, seminarlar tashkil etish - imkon qadar har bir sohada adabiyot va hikoyanavislik chirog'i (ayniqsa Mashhad shahrida) so'nib qolmasligi uchun xizmat qildi.

Tashakkuriy kino va televideniye sohasida ham samarali faoliyat ko'rsatgan. "زمانه", "واقعه", "شکر تلخ" va "بهشت منتظر می ماند" kabi teleseriallar uning ssenariynavis sifatidagi mashhur ishlaridan hisoblanadi. "من سقراط مجروح را دوست دارم" Said Tashakkuriyning mashhur asarlaridan biridir. Ushbu kitob muallifning beshta pyesasidan iborat to'plam bo'lib, unga teatr va dramaturgiya haqidagi bir ilmiy-ijodiy esse ham kiritilgan. Kitobdagi har bir pyesa o'ziga xos muhit va badiiy makonga ega. Turli dramatik vaziyatlar va g'oyaviy qatlamlar orqali asar o'quvchini jarayonga faol jalb etadi hamda har bir bo'lim o'zining alohida estetik qiyofasi bilan ajralib turadi. Bu to'plam Tashakkuriyning dramaturg sifatidagi mahoratini yaqqol namoyon etadi.

Tashakkuriy shunday derdi:

من دردی دارم برای امروز، پس برای مردم امروز می نویسم، درد فردا را مردم فردا روایت می کنند

"Men bugunning dardi bilan yashayman, shuning uchun bugungi odamlar uchun yozaman. Ertangi kunning dardini esa ertangi odamlar hikoya qiladilar."

2013-yilda u teatr sohasidagi faoliyatini qisqartirib, asosan hikoya va roman yozishga e'tibor qaratdi. Said Tashakkuriyningeng taniqli asarlaridan biri - "هندوی شیدا" romanidir. Ushbu asarda muallif bir erkakning yosh ayolga bo'lgan muhabbati va shu yo'lda butun hayotini qurbon qilishga tayyorligi haqidagi hikoyani tasvirleydi. Tashakkuriyning yana bir muhim asarlaridan biri - "سینما" romanidir. Mazkur asar siyosiy va romantik yo'nalishni o'zida uyg'unlashtiradi. Roman Qojarlar davrida Rossiyaning Eronga yurishi fonida rus qizi bilan eronlik yigit o'rtasidagi muhabbat voqeasini hikoya qiladi. Tarixiy-siyosiy keskinlik sharoitida kechadigan bu sevgi ko'plab sinov va to'siqlarga duch keladi. Syujetning dinamik rivoji va hissiy keskinligi o'quvchini asarni oxirigacha qo'ldan qo'ymaslikka undaydi.

Shuningdek, u "Neyestan" nashriyoti tomonidan chop etilgan Temuriy malika Gavharshod Begimga bag'ishlangan "بار باران" romani uchun 2006, 2009 va 2011-yillarda uch marotaba کتاب سال mukofoti hamda "شہید غنی پور" (Shahid G'ani Pur yil kitobi) mukofotiga sazovor bo'lgan. Bundan tashqari, Said Tashakkuriy bir necha bor eng yaxshi dramaturg, teatr rejissyori va ssenariynavis sifatida ko'plab mukofotlarga sazovor bo'lgan. U Fajr, Imom Rezo, YUNISEF kabi milliy va xalqaro festivallarda faol ishtirok etib, o'ttiz yildan ortiq adabiy-badiiy faoliyati davomida ko'plab unvon va e'tiroflarni qo'lga kiritgan. Bundan tashqari "رایو" oliy nishonini qo'lga kiritgan. Tashakkuriy roman va dramatik adabiyot yo'nalishida asarlar nashr ettirdi, filmlar suratga oldi, televideniye seriallari uchun ssenariylar yozdi va Tehron radiosining Drama bosh boshqarmasida radiopyesalar yaratdi .

Dramatik adabiyot sohasida uning asarlari turli nashriyotlar tomonidan bir necha bor qayta chop etilgan. Pyesalar to'plami "Neyestan" nashriyoti tomonidan ikki jildda — "وصل هزار مجنون" va "وقتی زمین دروغ می گوید" nomlari bilan nashr etilgan. Mazkur to'plami 2012-yil qishida yilning eng yaxshi kitobi unvoniga sazovor bo'lgan. Tashakkuriy 2022-yil 8-fevral, seshanba kuni ko'p yillar davom etgan surunkali skleroz kasalligi bilan kurashdan so'ng vafot etdi. Marhum 2022-yil 10-fevral, payshanba kuni Imom Rezo (a.s.) haramiga dafn etilgan.

Xulosa qilib aytganda, Said Tashakkuriy Eron adabiyoti va dramaturgiyada o'ziga xos ijodiy maktab yaratgan serqirra ijodkor sifatida e'tirof etiladi. U nafaqat romannavis va dramaturg, balki ssenariynavis, rejissyor, tanqidchi hamda pedagog sifatida ham samarali faoliyat yuritdi. Uning ijodi tarixiy, diniy va ijtimoiy mavzularni chuqur badiiy talqin etishi, ayniqsa tarixiy shaxsiyatlar siyratini keng qamrovda aks ettirgani bilan ajralib turadi. Tashakkuriyning asarlarida inson ruhiyati, e'tiqod, muhabbat, fidoyilik va jamiyat muammolari o'zaro uyg'un holda tasvirlanadi. U dramatik tafakkur va epik kenglikni birlashtira olgan ijodkor sifatida o'quvchini voqea-hodisalar markaziga olib kiradi. Uning roman va pyesalari nafaqat badiiy-estetik qiymatga, balki ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga ham ega. Said Tashakkuriy o'zining sermahsul ijodi, shogirdlar tarbiyasi va madaniy-

ma'rifiy faoliyati orqali Eron adabiyoti taraqqiyotiga sezilarli hissa qo'shdi. U bugunning dardi bilan yashab, bugungi avlod uchun yozgan ijodkor sifatida adabiyot tarixida munosib o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://www.mehrnews.com/news/5441413/>- از-رمان-سعيد-تشکری-مروری-بر-زندگی-و-آثار-سعيد-تشکری-تا-فیلمنامه-و-سینما
2. <https://www.ibna.ir/news/318378/>- اثر-برگزیده-روایتی-شیرین-از-قهرمان-های-ملی-و-مذهبی-در-زندگی-یاد
3. <https://ketabrah.com/author/28231>- سعید-تشکری
4. <https://www.alef.ir/news/3960620163.html>
5. <https://www.lisna.ir/ketab/item/4255/>- سعید تشکری نویسنده و نمایشنامه نویس درگذشت
6. <https://www.ibna.ir/news/529034/>- تشکری-داستان-نویسی-مردمی-شاگردپروری-حرفه-ای
7. <https://www.mashhadart.com/news/saeed-tashakori>
8. <https://farsnews.ir/Culture/1644341795000326471/>- سعید-تشکری-نویسنده-آثار-ضداستعماری-درگذشت-پیام-های-تسلیم